

GLOBALASHUV DAVRIDA MILLIY G‘OYANING YOSHLAR ONGIDA TUTGAN ROLI

Xushmuratov Asomiddin Otabek o‘g‘li

Yoshlar bilan ishlash Fakultet koordinatori

Paxta sanoat texnologiyasi fakulteti

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

Annotatsiya: *Ushbu maqolada muallif globallashayotgan dunyoda milliy g‘oyaning yoshlar ongida tutgan roli va ahamiyatini yoritib bergan. O‘zbekistonning istiqboli va kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish, ijtimoiy hayot rivojida yangi - yangi yutuqlariga erishish, mamlakatni modernizatsiyalash hamda yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirish milliy g‘oyaga daxldorlikni anglatadi. Shu jumladan, muallif milliy g‘oyaga daxldorlikni his etish, uni o‘zining g‘oyasi, xalqi, millatining, jamiyatning g‘oyasi - maqsadlari sifatida idrok etishiga undashini isbolab bergan.*

Kalit so‘zlar: *Globalashuv, milliy g‘oya, milliy tafakkur, milliy mafkura, yoshlar ongi, daxldorlik hissi, millat ravnaqi.*

Biz bilamizki, globallashayotgan dunyoda milliy g‘oyaning yoshlar ongida tutgan roli juda katta. Bugungi kun globallashuv davrida, yoshlarimiz jamiyatimiz rivojlanishida o‘z hissasini qo‘shmoqda. Har qanday millatning taraqqiyoti jamiyatdagi yoshlar qatlamining milliy g‘oya va ma‘naviy qadriyatlarga munosabati, uning yoshlar ongi, qalbi va ichki dunyosiga qanday ta‘sir etayotganligiga hamda amaliy faoliyatlariga qanday tarzda tayanishlariga bevosita bog‘liq. Shunday ekan, yoshlarning milliy g‘oyani anglashi, ishonch va e‘tiqodiga aylanishi, qanday yangi qadriyatlar shakllantirilganligi bilan ham bog‘liq bo‘ladi. Chunki milliy g‘oya bir tomondan yoshlarni o‘zining obekti sifatida qarasa, ikkinchi tomondan yoshlar miliy g‘oyaning ilg‘or rivojlantiruvchilari va kelajak avlodga yetkazuvchilari hisoblanadilar. Yoshlar qanchalik milliy g‘oya bilan qurollangan va uni anglab olgan bo‘lsa jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Bu holat milliy g‘oya va yoshlarning o‘zaro bog‘liqligini belgilaydi. Zamonaviy tilda aytadigan bo‘lsak, milliy g‘oya qanchalik mazmunli va millat kelajagi uchun xizmat qiladigan va har bir kishining uzoqqa mo‘ljallangan maqsad va manfaatlari, pirovardida esa millatning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo‘lsa, uni yoshlar shunchalik tez qabul qiladi va unga nisbatan o‘zining ijobiy munosabati shakllanadi. Shu bilan birgalikda, milliy g‘oyaning yoshlarga nechog‘li ta‘siri, safarbar etuvchilik, ilhomlantiruvchilik, buyuk kelajak sari chorlovchilik sohasidagi ahamiyati, ta‘lim va tarbiyada tutgan o‘rni va roli uning hayot haqiqatlariga, real borliqqa xalq turmushiga qanchalik mos va muvofiqligiga qarab belgilanadi.

Darhaqiqat, yoshlarda haqiqatga moyillik yuqori bo‘ladi, soxtakorlik, ko‘zbo‘yamachilik, so‘z bilan amaliyoti boshqa kabi salbiy hodisalardan jirkanadi, nafratlanuvchi ruhiyati kuchli bo‘ladi. Yoshlarning milliy qadriyatga munosabati, milliy g‘oya asosida "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan ulug‘ maqsad va manfaatlarini umumlashtiradigan, tahlil etadigan, shu g‘oyalarni boyitish va ishonch, e‘tiqodga aylantirish bilan bog‘liq. Milliy g‘oyaning kuchi bir tomondan ma‘rifat-targ‘ibot ishlari, uning samaradorligiga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi

tomondan yoshlarning kundalik hayotda duch kelayotgan muammolarning tushunishlari, ularning munosabatlariga fikrga fikr bilan, g'oyaga g'oya bilan javob bera olish, uni qanday hal etayotganliklariga bevosita bog'liqdir. Millat ravnaqi, Vatanga kerak bo'lsa jonini jabborga berib faoliyat ko'rsatadigan yoshlar bo'lmasa milliy g'oya mafkurasida ko'zda tutilgan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Bu yoshlarda milliy g'ururni baland bo'lishini taqozo etadi.1 Jamiyatda milliy g'oya sohasini rivojlantirish yangi texnologiyalarni joriy etishni taqozo qiladi. Chunki, bu milliy g'oyani yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini ta'minlovchi muhim vosita hisoblanadi. Shu bois hozirgi vaqtda milliy g'oyani yoshlar dunyoqarashiga ta'sirini oshirishda fundamental va amaliy tadqiqotlar natijalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Milliy g'oyani targ'ibot qilishda innovatsiya shu soha sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan holda amalga oshiriladi. Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, milliy g'oya tizimida shakllangan yangicha yondashuvlardan iborat bo'ladi. Bu yondoshuvlar esa tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, milliy g'oya tizimining konseptual mazmunini rivojlantirish uchun istiqbolli asos bo'lib xizmat qiladi.

Yosh avlodga “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” va ozod va obod Vatanni meros qoldirar ekanmiz, ular mutafakkirlarimizning, davlat rahbarlarining ulug' ishlarini davom ettirishlarini niyat qilar ekanmiz, yoshlarning ma'naviy uyg'oqligiga ahamiyat berishimiz lozim. Mustaqillik mohiyati va ahamiyatini sarhisob qiladigan bo'lsak bu ijtimoiy o'zgarishda yoshlarning o'rni muhim.2Mustaqillik tufayli yoshlarning dunyoqarashi o'zgardi. Ularning g'urur, oriyat, sha'n va nomus tuyg'ulari kuchaymoqda. Hayotga va mehnatga munosabati, Vatanga, ona zaminga mehri, egalik va mas'uliyat hissi kuchaydi. Bir so'z bilan aytganda yoshlar o'zligini ang'lay boshladi. Qanday zaminda yashayotganimizni his qilish, umuminsoniy qadriyatlarga intilish bilan birga, Sharq falsafasi, o'zbekona tafakkur nuri barchaning dilidan o'rin ola boshladi. Milliy an'analarimiz va udumlarimizni tiklash va rivojlantirishda moyilik kuchaydi. Islom dinimizni qadrlash ma'naviyatimizni yangi ma'nolar bilan to'ldirishga olib keldi. Ulug' bobokalonlarimiz madaniy xazinasiga haqiqiy vorislik qila boshladik. Ulardan faxrlanish imkoniyatiga ega bo'ldik. Yurtimizda yashayotgan barcha millat, elat vakillarining tinch yashashi uchun sharoit yaratildi. Bundan yoshlar bahramand bo'lmoqda desam mubolag'a bo'lmaydi.

Yangi jamiyatning maqsad va ideallariga binoan yangi avlod dunyoqarashi shakllanmoqda. Yangi jamiyatning qaror topishi va rivojlanishi, o'z navbatida, ma'naviy yangilangan, rivojlangan va shakllangan avlodlar ruhining poklanishini ham taqozo etmoqda. Yangi jamiyat avval millat orzusida, qalbida pishib yetiladi. So'ngra u obektiv reallikka aylangan, keng jamoatchilikning hayot va taraqqiyot tarzini ifodalovchi soya tarzida qaror topdi. Xuddi shu jamiyat yetishtirgan kishilar, keng jamoatchilikning ilg'or dunyoqarashi va tafakkuriga zarurat sezadi. Bir-birini taqozo etuvchi va bir-birining taraqqiyotini belgilovchi g'oyaviy omillar mushtarakligi jamiyat va mamlakatning milliy manfaatlari va istiqbolini kafolatlovchi kuchlardir. Ana shu ma'noda respublikamizda qaror topayotgan fuqarolik jamiyatini va bu jamiyatda istiqomat qiluvchi yoshlarning ongini, dunyoqarashini o'zgartirish va insoniylashtirish maqsadida nihoyatda ko'p chora-tadbirlar ko'rilmogda. Vatanimizning Qurolli Kuchlari va xavfsizligini mustahkamlash, fuqarolarning o'z uyi va ish joylarida tinch, xotirjam bo'lishlari bo'yicha choratadbirlar belgilandi; ta'lim tizimimizdagi islohotlar

zamonaviy litsey va kollejlarda ta'lim qilinishiga olib keldi; yoshlarning bilim va salohiyatlarini yuksaltirish maqsadida "Ulug'bek", "Umid", "Ustoz", keyinchalik "Iste'dod" jamg'armalari tuzildi; O'zbekiston Respublikasida kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi asosida umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini tashkil etish chora-tadbirlari ishlab chiqildi. Ular yangi jamiyatning kuch qudratidan nishona bo'libgina qolmay, milliy ong va yangi dunyoqarash shakllanishida, yoshlarda milliy g'ururini mustahkamlashda juda katta ahamiyat kasb etmoqda.4 Yoshlarning ongi va tafakkuri o'zgarib, yangilanib bormoqda. Tafakkur va ongimizda mustaqillik g'oyalari mustahkamlanmoqda. Dunyoni, o'zimizni va o'zligimizni anglash imkoniyati qo'lga kiritildi.

Bu esa yoshlar tafakkurini mustaqillik tafakkuri talablariga mos shakllantirmoqdadir. Tinch va osoyishta mehnat qilib yashashga da'vat etuvchi milliy g'oyaga tahdid solishi mumkin bo'lgan o'rta asrlarda mavjud bo'lgan musulmon xalifaligini tiklashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan muayyan tashkilotlar mavjudki, ular kata mablag' va mafkuraviy ta'sir vositalari yordamida yagona mafkuraviy makon barpo qilib, islom dinini siyosiy lashtirish va shu asosda hukmronlik qilish, hokimiyatni qo'lga kiritishga harakat qilmoqda. Ular musulmonlar yashaydigan mamlakatlar o'rtasida hech qanday ma'muriy chegaralar bo'lmasligi kerak. Bu davlatlarning barchasi yagona xalifalik markazi tomonidan boshqarilishi zarur, degan g'oyalarni yoshlar ongiga tiqishtirishga harakat qilmoqda. Bunday ekstremistik harakatlar orqali musulmonoilalarining yosh farzandlari ongi, dunyoqarashini zabt etishga, pirovardida milliy g'oya, milliy mafkura tushunchalari o'rnini o'rta asr ruhidagi islom aqidalari bilan to'ldirishga harakat qilmoqdalar. Milliy g'oya, milliy tafakkur va milliy mafkura yo'lida yoshlar qanchalik birlashsa, jipslashsa jahon xalqlari ko'z o'ngida kuchimiz, mavqiyimiz va o'rnimiz shunchalik baland ko'tariladi.

Biz boshqa davlatlarga suyanib, boshqa davlatlarni panoh tutib, ularning etagidan ushlab yuradigan davlat, xalq emasmiz, mustaqil siyosat, mustaqil tafakkur va mustaqil harakatlargina doimo boshqalarda hurmat va e'tibor uyg'otgan. Mutelik tobelik mevasi har qanday sharoitda millatning rivojlanishiga yo'l bermaydi. O'zimizning kuchimiz, qudratimiz, o'zimizning maslagimiz va o'zimizning ongimiz tufayli biz buyuk davlatga erishamiz. Hozirgi sharoitda kimda kim o'z mustaqil Vatani, o'z mustaqil fikri, mustahkam e'tiqodi bo'lsagina tenglar ichida teng bo'ladi. Hozirgi davr uchun dolzarb va asosiy hisoblangan milliy g'oya tamoyillari millat tarixi va uni idrok etish darajasiga bog'liq bo'ladi. Chunki milliy g'oya osmondan tushmaydi, u yerda yurgan odamlarning qalbida, shuurida yetilib, shu yer, shu zamin, shu Vatan xizmati uchun qaratilgandagina uning ahamiyati va mavqeyi ham ortib boradi. Muayyan davrdagi milliy g'oya, milliy mafkura, ya'ni jamiyatning asosiy maqsadini ideallar, demokratik tamoyillar bilan uyg'unlashtirish masalasi ham juda muhimdir. Bu jarayon millatni o'z qobig'ida o'ralashib qolish xavfidan ozod etadi, unga jahon miqyosida tafakkur yuritish imkoniyatini beradi.

Hozirgi paytda kimning g'oyasi kuchli, fikri tiniq, mafkurasi hayotiy bo'lsa - o'sha g'alaba qozonadi. Bu - insoniyatning XX asr tarixidan kelib chiqadigan muhim xulosalardan biridir. Milliy istiqloq mafkurasi xalqning tub manfaatlari va maqsadlarini o'zida ifoda etadi, jamiyat a'zolarini shu maqsad atrofida jipslashtiradi. Demokratik jamiyatda xalqlar o'z milliy g'oyasiga tayanadi. Bu mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishning muxim shartidir. Shuning

uchun ham, yoshlarda milliy g'oyaga daxldorlik hissini shakllantirish va rivojlantirish taraqqiyotning muhim sharti hisoblanadi. Yoshlarning milliy g'oya yaga daxldorlik hissining shakllanishi va rivojlanishi jamiyatning g'oyaviy-mafkuraviy asoslari, ta'lim-tarbiya tizimi, qadriyatlar tizimiga, har bir insonning ong va tafakkuri shakli, dunyoqarashi, hayotiy mo'ljallariga bog'liq bo'ladi. Insonning ulg'ayishi, ijtimoiy hayotda o'zining o'rnini topishi, muayyan mavqeiga ega bo'lishi, ayni paytda shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarida ham o'zaro o'rnatilgan tartiblar, qabul qilingan qonunlar, ma'naviyaxloqiy qadriyatlar tizimi, yoshlarda mas'uliyat-daxldorlik hissini uyg'otadi. Daxldorlikni anglash yuksak ma'naviyat mezoni sifatida namoyon bo'lib, jamiyat oldida turgan maqsad g'oyalariga bevosita bog'liqdir.

Daxldorlik hissi yoshlarni ong va tafakkurini yangilashga, Vatan taraqqiyoti yo'lida mustaqillik tafakkuriga egabo'lish, yangiliklarni qabul qilish, yangi-yangi ixtirolar qilishga o'zini undash, har bir kishi hayotining mazmuniga, maqsadiga va hayotiy mayliga aylangan bo'lishi taraqqiyotning talabidir. “O'z uyingni o'zing asra!” degan shior yurtimizda yashayotgan har qaysi insondan hamon uchrab turadigan loqaydlik va beparvolik kayfiyatlaridan xolos bo'lishni, eng muhimi, yon atrofimizda bo'layotgan voqealarga daxldorlik hissi bilan yashashni bugungi kunda eng dolzarb masala sifatida oldimizga quymoqda. Bu Vatan taraqqiyoti yo'lida tinchlikni asrab avaylashni, qadrlashni va qadriga etishga, tinchlik uchun kurashga daxldorlik hissi doirasida namoyon etadi. Mamlakatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Daxldorlik hissi yoshlarni ezgu maqsadlar, g'oyalar bilan yashashga undaydi. Shuning uchun daxldorlik hissini, ayrim tor doiradagi manfaatlar tizimi nuqtai-nazaridan emas, balki milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi, umuminsoniy demokratik qadriyatlar nuqtai-nazaridan keng anglash madaniyati insoniyatga, kelajakka xizmat qiladi.⁷ Bu turli xalqlar, millatlar, dinlar o'rtasida ham o'zaro bag'rikenglikni, totuvlik va hamjixatlikni ta'minlashning muxim sharti xisoblanadi. Milliy g'oyaning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish bilan bog'liq bosh g'oyasi har bir kishining ozodlikka, Vatanning obod va farovon bo'lishiga hissasini qo'shishga, erkin va farovon hayot qurishga bo'lgan daxldorlik hissini shakllantiradi. Milliy g'oyaning asosiy g'oya va tamoyillari “Xalq farovonligi”, “Vatan ravnaqi”, “Tinchlik”ni asrabavaylash, “ijtimoiy hamkorlik”, “dinlararo bag'rikenglik” va “millatlararo totuvlik”, “komil inson” g'oyalari yoshlar hayotiga, ularning hayotiy maqsad va manfaatlariga, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda ma'suliyat hissini, huquq va erkinliklarini yanada mustahkamlashga, taraqqiyotga xizmat qiladi. Bugun mamlakatimiz ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy hayoti sohalarida erishilgan yutuqlarni yoshlarning milliy g'oyaga daxldorlik hissi natijasi sifatida ko'rish mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, birinchidan, mustaqillik O'zbekiston yoshlari hayotida buyuk istiqbollarni ochdi. Ularni hayotda o'z o'rinlariga, ijtimoiy mavqega ega bo'lishlari uchun etarli shart-sharoit yaratildi. Yoshlarni undan oqilona foydalanishlarini kafolatlaydi. Ikkinchidan, yoshlar mamlakatning mustaqil demokratik taraqqiyot yo'lidan rivojlanishda muhim strategik kuchdir. Unga qarshi qaratilgan har xil mafkuraviy tazyiqlarga javob bera olishlari uchun ham kuchli bilim va tafakkurga ega bo'lishlari lozim. Uchinchidan, yoshlarning OAV dan, axborot kommunikatsiya tizimi, internet orqali turli-xil “ijtimoiy tarmoqlar”dan foydalanishda ijtimoiy ma'suliyatni va madaniyatni yanada oshirishga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy ishlarga keng jamoatchilikning e'tiborini yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

To‘rtinchidan, yoshlarning mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash maqsadida ularning milliy g‘oyaga dahldorlik hissini yanada oshirish, milliy g‘oya bilan yoshlarni uzviy bog‘lash hamda mafkuraviy immunitetini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Milliy g‘oyaga daxldorlikni anglash, taraqqiyotning muxim sharti bu milliy g‘oya maqsadlariga, asosiy tushuncha va tamoyillariga ishonch va e‘tiqod bilan bog‘liqdir. Milliy g‘oyaga daxldorlik, uning negizlariga milliy ma‘naviy meros, qadriyatlarga, umuminsoniy demokratik prinsiplarga amal qilishni, unga mas‘ullikni anglatadi. Milliy g‘oyaga daxldorlik, jamiyat mafkurasiga, O‘zbekistonda yashayotgan turli xalqlar, millatlarning, ajdod va avlodlarning hayotiy orzu intilishlariga, maqsad va mayllariga bo‘lgan hurmat, uni asrab-avaylash, himoya qilish va yangilab, boyitib borishdir. Milliy g‘oyaga daxldorlik - O‘zbekistonning istiqboli va kelajagi to‘g‘risida qayg‘urish, ijtimoiy hayot rivojida yangi - yangi yutuqlariga erishish, mamlakatni modernizatsiyalash - yanada demokratlashtirish, fuqarolik jamiyatini rivojlantirishdir. Milliy g‘oyaga daxldorlikni his etish, uni o‘zining g‘oyasi, xalqi, millatning, jamiyatning g‘oyasi - maqsadlari sifatida idrok etishiga undaydi. Bu xalqni - xalq, millatni - millat qilishga xizmat qiladi. Globallashayotgan dunyoda milliy g‘oya bilan yoshlar uzviy bog‘langanligi ma‘lum. Negaki, har bir davlatning milliy g‘oyasini bosh maqsadi bo‘ladi, masalan, “Ozod va obod Vatan - erkin va farovon hayot kechiraylik”, g‘oyasi bevosita yoshlarni qamrab oladi. Bunga sabab esa har bir yosh avlod yaxshi hayotda yashashni hohlaydi, ozod Vatanda istiqomat qilishni hohlaydi, tinch yurtda yashashni, oilasini boqishni istaydi. Mana shu kabi vaziyatlar yoshlarimizni milliy g‘oya bilan nafaqat milliy g‘oya bilan balki milliy g‘oyaning maqsadi yo‘lida jipslashtiradi ahillik bilan bir yo‘lda birlashishni talab etadi, desam mubolag‘a bo‘lmaydi. Milliy g‘oyaning yoshlar ongidan chuqur o‘rin olganini aniqlashning yana bir asosiy mezonini shu aziz Vatanimiz, shu aziz xalqimiz qadriyatlari barchamizniki, bu Vatan, bu millat uchun yashash va uning istiqboli uchun halol va pok mehnat qilish baxt ekanligini qanchalik his qilishlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. “O‘zbekiston.-t. 2000”
2. Karimov I. A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T. “O‘zbekiston”,1996.
3. Tashmetov, T. X. (2020). Yoshlarga berilayotgan imkoniyatlarning tarbiyadagi ahamiyati "Science and Education" Scientific Journal,1(7), 617-624.
4. Milliy istiqloq g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T.: “Yangi asr avlodi”, 2001
5. Milliy istiqloq g‘oyasi fanidan ma‘ruzalar (bakalavriat uchun) “O‘quv qo‘llanma "Toshkent - 2007. B-32.
6. Karimov I. A. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. T. “Manaviyat” 2008, B-111.
7. I.Ergashev, N.Berdaliev, M.Davletova, G‘.Mahammadjanov O.Bo‘taylorov, "Milliy g‘oya targ‘iboti texnologiyalari O‘quv qo‘llanma "Toshkent - 2008. B-19.